

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

NE3711802340

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Paxtaobod tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 01.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Paxtaobod tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



V.F.SAYDULLAYEV

01.12.2022

PUDRAT ShARTNOMASI № 11

«01» Dekabr 2022 yil

Paxtaobod tuman

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari **Sh.Orifjonov** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi **“Xamjixat Yagona Qurilish” MCHJ** uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari **T.Komilov** ikkinchi tomondan Dyrdiyori MFY Gulchinor va Sog'lom turmush ko'chalarini asfalt qilish ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

1.Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning buryurtmasini defektniy akt va smeta xujjatlariga va 28.11.2022 yil kungi №**22110012194748** LOT ga asosan bajarib beradi.

2.Shartnomaning baxosi va xisob-kitob tartibi.

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smetaga asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati **764321453** (Etti yuz oltmish to'rt million uch yuz bir ming to'rt yuz ellik uch) so'mni tashkil etadi va ta'mirlash ishlarini 25 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil xisoblanib, faqatgina ishlar xajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major xolatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 1 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30% foizini ya'ni **229296453** (ikki yuz yigirma to'qqiz million ikki yuz to'qson olti ming to'rt yuz ellik uch) so'mni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70% foizi, ya'ni **535025000** (besh yuz o'ttiz besh million yigirma besh ming) so'mini «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi (F-3) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib, (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning xuquq va majburiyatlari.

3.1. «Pudratchi»ning majburiyatlari
Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan ob'ektni «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyixa smeta xujjatiga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 1 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi.

Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Pudratchi»ning xuquqlari
Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans xaq to'lanishi va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;
Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishini natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari
Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;
Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning xuquqlari
«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa maxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;
«Pudratchi»dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta xujjatlari asosida ishni sifatli bajargan xolda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarini shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish;

4. Tomonlarning javobgarligi.

O'zbekiston respublikasining Xo'jalik yurituvchi subektlarni faoliyatni shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi qonun xujjatlariga asosan belgilanadi

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Pudratchi» ob'ektni o'z vaqtida topirishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar baxosining 50% idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20%i miqdorida «Pudratchi» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4%i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarimani umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50%i miqdorida ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

5. Fors major xolatlar.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiyat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni xal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofik o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'li bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31»dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi xam xuquqiy jihatdan teng kuchli xisoblanadi.

8. Tomonlarning rekvizitlari.

«Pudratchi»

«Buyurtmachi»

«Xamjixat Yagona Qurilish» MCHJ

Manzili: Paxtaobod tumani

Teraktagi MFY

Bank nomi: Xalq bank Paxtaobod F

X/r: 20208000704771806001

INN 301 154 187

MFO: 00657

obodonlashtirish boshqarmasi

Manzili: Paxtaobod sh Bobur MFY

ShXR: 401722860032327045204110002

STIR (INN): 204432768

XXTK (OKONX): 90290

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi

X/R: 23402000300100001010

INN: 201122919 MFO: 00014

Banki: Markaziy bank XKKM Toshkent

Raxbar: Sh.Orifjonov



T.Komilov

